SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - iyul 173-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahar hududidan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarining oralig‘larida harakat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 11-fevral kuni “Xavfsizlik va ravon yo‘l tamoyili asosida yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 6-iyundagi 10/6-1906-sonli, 2022-yil 8-iyundagi 10/6-1926-sonli xatlari, O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26-dekabrdagi 342-sonli Qarorlari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1.Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 6-iyundagi 10/6-1906-sonli, 2022-yil 8-iyundagi 10/6-1926-sonli xatlari inobatga olinsin.

2.Shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, 4R-32 avtomobil yo‘lining 0-5 km.oralig‘ida (Paxtakor ko‘chasida), 4P-196a yo‘lining 0-3 km oralig‘ida (Tinchlik ko‘chasida) o‘rnatilishi lozim bo‘lgan, transport vositalarini harakat yo‘nalishini ajratuvchi temir beton to‘siqlar (BDO-5) o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

3.Ushbu yo‘l qismi oralig‘ida transport vositalarini qayrilib olish joylari hamda maydonchalari tezlashish hamda sekinlashish tasmalarini qurish, yo‘l belgilari, piyodalar o‘tish joylari tashkil qilinsin.

4.Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Xudoyberganov) va Xovos tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (Sh.Sherqulov)ga 4R-32 avtomobil yo‘lining 0-5 km.oralig‘ida (Paxtakor ko‘chasida), 4P-196a yo‘lining 0-3 km oralig‘ida (Tinchlik ko‘chasida) fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida transport vositalarini harakat yo‘nalishini ajratuvchi temir beton to‘siqlar (BDO-5) o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5.Shahar hokimligi matbuot kotibi (A.Abduraxmonov) mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

6.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Mirzayev hamda ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Xudoyberganov) zimmalariga yuklatilsin.

Yangiyer shahar hokimi **I.Xo'jayev**